



Raqamli Hukumat 2028

Strategiyasi

Bizning Missiya

*Raqamlashtirish orqali insonlar
hayotini yengillashtirish*



Mundarija

1-bob. Umumiy qoidalar	01
2-bob. Raqamli hukumatning asosiy tamoyillari, strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari	04
2.2. Raqamli infratuzilmani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari	07
2.3. Ma'lumotlarni integratsiyasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari	09
2.4. Ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari	12
2.5. Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim berish va malaka oshirishning ustuvor yo'nalishlari	14
2.6. Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim berish va malaka oshirishning ustuvor yo'nalishlari	16
2.7. Raqamli hukumat sohasida axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlikni ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari	19
2.8. Raqamli hukumat sohasida monitoring va samaradorlikni baholashning ustuvor yo'nalishlari	20
2.9. Raqamli hukumat sohasida xalqaro hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari	21
3-bob. Strategiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar	22
Aloqa ma'lumotlari	25

01

bob

Umumiy qoidalar



1-bob. Umumiy qoidalar

MAQSAD

“**Raqamli hukumat – 2028**” strategiyasi (keyingi o‘rinlarda – **Strategiya**) ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimining jadal raqamli rivojlanishini ta’minlash, shu jumladan raqamli davlat xizmatlarini ko‘rsatish mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsadida ishlab chiqilgan

Strategiya O‘zbekiston Respublikasining **raqamli hukumatni** rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalishlari hamda o‘rta va uzoq muddatli istiqbolli vazifalarini belgilaydi, shuningdek, BMTning **Barqaror rivojlanish maqsadlari** va **Elektron hukumatni** rivojlantirish reytingida belgilangan ustuvor vazifalardan kelib chiqib, raqamli texnologiyalarni yanada keng joriy etish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi






Elektron hukumatning ma'lumotlarni qayta ishlash markazi				
O'zbekiston Respublikasi hukumati portali	Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali	Veb-portal va mobil ilovalar	ERI ishonchli uchinchi tomon	
Idoralararo integratsiya platformasi				
Raqamli ma'lumotlar platformasi				
Elektron hukumatning markaziy axborot tizimlari				
Yagona identifikatsiya tizimi	O'zbekiston Respublikasi ochiq ma'lumotlar portali	Ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi	Normativ-huquqiy hujjatlar loyihasini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimi	Normativ-huquqiy hujjatlar loyihasini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimi
Elektron raqamli imzo	MyID			
Elektron hukumat tizim majmualari				
"Kliring"	"Nafaqa"	"Bojxona"	"Soliq"	"Raqamli geologiya"
"Xarid"	"Budjet"	"Litsenziya"	"Adliya-2"	"Qurilish" ATM
"Ekonazorat"	"Statistika"	"Kommunal"	"Ta'lim"	"Sog'liqni saqlash"
To'lovlar hisobini yuritish Yagona billing tizimi				
Elektron hukumatning markazlashgan bazalari				
Ma'lumot va tasniflagichlarning ma'lumotlari bazasi	Tadbirkorlik sub'ektlari ma'lumotlar bazasi		Aholi reestri	Ko'chmas mulk, ob'ektlarning geoaxborot ma'lumotlar bazasi
Avtotransport ma'lumotlar bazasi	Mahalla ma'lumotlar bazasi	Kosmik tasvirlar		
Telekommunikatsiya tarmog'i				

02

bob

**Raqamli hukumatning
asosiy tamoyillari, strategik
maqsadlari va ustuvor
yo'nalishlari**

2-bob. Raqamli hukumatning asosiy tamoyillari, strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari



RAQAMLI HUKUMATNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY TAMOIYILLARI QUYIDAGILAR HISOBLANADI

Raqamli inklyuzivlik

(Digital Inclusion) – barcha fuqarolar ega bo'lgan raqamli ko'nikmalari va texnik vositalaridan qat'iy nazar raqamli xizmatlardan foydalana olish imkoniyatiga ega bo'ladi

Samaradorlik va tejamkorlik

(Efficiency and Cost-Effectiveness) – raqamli texnologiyalar jarayonlarni soddalashtirish, xarajatlarni kamaytirish va xizmat ko'rsatish jarayonini yaxshilashga xizmat qiladi

Foydalanuvchiga moshlashgan

(Digital Inclusion) – barcha fuqarolar ega bo'lgan raqamli ko'nikmalari va texnik vositalaridan qat'iy nazar raqamli xizmatlardan foydalana olish imkoniyatiga ega bo'ladi

Foydalana olish imkoniyati

(Accessibility) – raqamli xizmatlar barcha fuqarolarga joylashgan joyidan qat'iy nazar ulanish, kirish va foydalana olish imkoniyati mavjuf bo'ladi

Hech kimni ortda qoldirmaslik

(Leave No One Behind) – barcha fuqarolar yoshidan, jinsida, daromadidan, nogironligidan, tilidan yoki yashash joyidan qat'i nazar raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi

Shaffoflik va ochiq ma'lumotlar

(Open Government and Open Data) – davlat ma'lumotlari, qarorlar va boshqa jarayonlar bilan ochiq tanishish, ma'lumotlarni olish imkoniga ega bo'ladi

Raqamli ustuvorlik

(Digital by default) – raqamli xizmatlar avval raqamli ko'rinishda joriy etiladi

Barcha idoralar yagona yondashuvi

(Whole-of-Government) – barcha davlat organlari o'rtasida muvofiqlik va hamkorlikni ta'minlanadi va yagona yondashuv asosida xizmatlar raqamlashtiriladi

Foydalana olish imkoniyati

(Data-Driven Decision-Making) – sifatli ma'lumot va tahlillardan foydalanib, qarorlarni shakllantirish, qabul qilish va xizmatlarni baholash amalga oshiriladi

2.2. Raqamli infratuzilmani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari



Yuqori tezlikdagi, xavfsiz va arzon internetdan foydalanish imkoniyatini oshirish



Barcha ijtimoiy obyektlarni internet bilan ta'minlash



Raqamli tafovutni kamaytirish




Davlat xizmatlarini onlayn olish imkoniyatini oshirish va vaqt/mablag' tejalishiga erishish

RAQAMLI INFRATUZILMANI RIVOJLANTIRISH MAQSADIDA QUYIDAGI TADBIRLAR AMALGA OSHIRILADI

- optik tolali aloqa liniyalari, xalqaro kommutatsiya markazlarini modernizatsiya qilish va rivojlantirish orqali mintaqaviy va xalqaro telekommunikatsiya tarmoqlarining, O'zbekiston Respublikasining chegaradosh Markaziy Osiyo davlatlari bilan tranzit aloqalarining o'tkazuvchanlik qobiliyatini kengaytirib borish
- taqdim etilayotgan xizmatlar hajmini oshirish, zahiralash, tizimlarning ishonchlilikini ta'minlash, shuningdek, aholi punktlari va ijtimoiy obyektlarni keng polosali xizmatlardan foydalanish imkoniyati bilan ta'minlash uchun ma'lumotlar uzatish tarmog'ini kengaytirish
- mobil va yo'ldosh aloqa operatorlarining investitsion faolligini rag'batlantirishning qo'shimcha mexanizmlarini yaratish
- avtomagistral va temir yo'llari, turistik obyektlarni mobil aloqa tarmoqlari bilan qoplashni ta'minlash
- Internet jahon axborot tarmog'iga ulanish tariflarini takomillashtirish va optimallashtirish
- geografik joylashuvidan qat'iy nazar, fuqarolarning o'sib borayotgan axborotga ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun keng polosali simsiz va mobil texnologiyalarni yanada rivojlantirish
- "bulutli" hisoblashlar asosida ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash markazlarini rivojlantirish, foydalanuvchi talablariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining axborot resurslariga doimiy ulanishni ta'minlash

- raqamli hukumat doirasida raqamli davlat xizmatlaridan foydalanish uchun barcha davlat organlari, ularning tarkibiy va hududiy bo'linmalarini idoralararo ma'lumotlar uzatish tarmog'iga ulagan holda ushbu tarmoqni rivojlantirish
- mamlakatimiz hududida davlat organlari, jismoniy va yuridik shaxslar uchun axborotni saqlash, qayta ishlash, himoya qilish va raqamli davlat xizmatlarining foydalanuvchanligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish
- davlat organlari faoliyatini raqamlashtirish va raqamli davlat xizmatlarini ko'rsatish doirasida "dasturiy ta'minot xizmat sifatida" (SaaS), "platforma xizmat sifatida" (PaaS), "infratuzilma xizmat sifatida" (IaaS) texnologiyalarini keng joriy etish
- shahar infratuzilmasini boshqarishda raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali transport logistikasi, shahar infratuzilmasi, shahar muhitining sifati, shahar rivojlanishini boshqarish samaradorligi, jamoat, biznes va yashash joylari bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun "aqlli" va "xavfsiz" shahar loyihalarini izchil amalga oshirish



2.3. Davlat xizmatlarini raqamlashtirishni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari



davlat xizmatlaridan foydalanishni osonlashtirish



talab qilingan ma'lumotlar va hujjatlarning sonini qisqartirish



shaxsni masofadan tasdiqlashning qo'shimcha shakl va usullarini joriy etishi



davlat organlari va tashkilotlariga murojaatlar ko'rib chiqilishi holatini onlayn rejimida kuzatish imkoniyati

DAVLAT XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISH MAQSADIDA QUYIDAGITADBIRLAR AMALGA OSHIRILADI

- Davlat xizmatlarini to'liq avtomatlashtirish va raqamlashtirish orqali aholi va tadbirkorlarga davlat xizmatlaridan foydalanishni osonlashtirish va tezlashtirish
- mamlakat miqyosida sifatli va talab yuqori bo'lgan raqamli davlat xizmatlarini yanada kengaytirish, bosqichma-bosqich barcha davlat xizmatlarini raqamli shaklga o'tkazish, shu jumladan ko'rsatilayotgan avtomatlashtirilgan xizmatlar ulushini 2028-yilga qadar 50 foizga yetkazish
- davlat xizmatlarini ko'rsatish tartib-taomillarini optimallashtirish, shu jumladan ma'muriy tartibotlarni avtomatlashtirish orqali talab qilingan ma'lumotlar va hujjatlarning sonini qisqartirish
- litsenziyalar va ruxsatnomalar berish bilan bog'liq barcha tartib-taomillarni optimallashtirish va ularni real vaqt rejimida ishlovchi elektron shaklga o'tkazish
- elektron hukumat tizimi doirasida raqamli davlat xizmatlaridan aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun shaxsni masofadan tasdiqlashning qo'shimcha shakl va usullarini joriy etilishini nazarda tutuvchi raqamli identifikatsiyalashni rivojlantirish

- aholi va tadbirkorlik subyektlariga elektron hukumat tizimlari orqali yuridik ahamiyatga ega bo'lgan axborot yetkazish va xabardor qilish imkoniyatini yaratish
- aholi va tadbirkorlik subyektlarining davlat organlari va tashkilotlariga murojaatlarini ko'rib chiqish holatini onlayn rejimida kuzatish samarali tizimlarini ("treking") joriy etish
- davlat organlari va boshqa subyektlarning barcha xizmatlari uchun bojlar, yig'imlar va boshqa to'lovlarni onlayn to'lash va navbatlarni avtomatlashtirish axborot tizimlari komplekslarini yaratish
- raqamli davlat xizmatlardan foydalanishni yagona nuqtasi bo'lgan Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ko'rsatiladigan xizmatlardan foydalanish bosqichlarini "3 qadam" tamoyili asosida maqbullashtirib borish



MOBIL ILOVADAN FOYDALANISH (yanvar-iyul)



FOYDALANUVCHILAR



Foydalanuvchilar
+6,6
nafar



Playmarket
+5,4 mln.
(iyun oyida +300,1 mingta,
iyul oyida + 328,8 mingta)



AppStore
+1,2 mln.
(iyun oyida +70,6 mingta,
iyul oyida + 78 mingta)

565 TURDAGI ELEKTRON XIZMATLAR

- Bolani bog'chaga va maktabga joylashtirish
- Kredit olishni cheklash
- Avtotransport boshqaruvi uchun ishonchnoma olish
- Mehnatga layoqatsizlik varaqasini olish
- Talabalar turar joyiga joylashish
- Turar joylarning kadastr pasportini olish va b.

17 TURDAGI RAQAMLI HUJJATLAR



AVTOXABAR




HAYOTIY VAZIYATLARDA ELEKTRON XABARNOMALAR YUBORISH




- bolani bog'chaga joylashtirish uchun yo'llanma shakllanganda
- pasport, id-karta, haydovchilik guvohnomasi muddatlari yaqinlashganda va b.

KOMMUNAL, SOLIQ VA JARIMALARNI ONLAYN KUZATISH



FOYDALANUVCHILAR QONIQLIQ DARAJASI



2.4. Ma'lumotlarni integratsiyasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari



aholining davlat organlari bilan xavfsiz va oson o'zaro hamkorlik qilishini ta'minlash



raqamli davlat xizmatlariga ishonchni mustahkamlash,



davlat axborot tizimlarida mavjud bo'lgan ma'lumotlarning to'liqligi, ishonchliligi, dolzarbligi va sifatini oshirish

MA'LUMOTLARNI INTEGRATSIYASINI RIVOJLANTIRISH MAQSADIDA QUYIDAGI TADBIRLAR AMALGA OSHIRILADI

- davlat organlari va tashkilotlari o'rtasida o'zaro raqamli ma'lumotlarni almashishni yagona nuqtasi bo'lgan "Raqamli hukumat" tizimining Idoralararo integratsion platformasini takomillashtirish
- davlat ma'lumotlarini boshqarishning yagona tizimini shakllantirish orqali davlat boshqaruvida ma'lumotlarni to'plash va raqamlashtirish uchun kerak bo'lgan barcha resurslarni yaratish orqali asoslangan qarorlarni qabul qilishni avtomatik ravishda shakllantirish
- raqamli hukumat doirasida ma'lumotlarni nodavlat tashkilotlarga taqdim etuvchi nuqtasi bo'lgan "Raqamli hukumat" tizimining Raqamli ma'lumotlar platformasini takomillashtirish
- davlat boshqaruvi tizimida qo'llaniladigan ma'lumotnomalar va klassifikatorlarning markazlashtirilgan manbaini yaratish va takomillashtirish
- davlat organlari va tashkilotlari axborot tizimlarini integratsiyalashda ularning mosligini ta'minlash maqsadida ma'lumotnomalar va klassifikatorlarning markazlashtirilgan manbaidan foydalanishni ta'minlash

- davlat axborot tizimlarida mavjud bo'lgan ma'lumotlarning taqqoslanishini ta'minlash, shuningdek, ularning to'liqligi, ishonchligi, dolzarbligi va sifatini oshirish
- davlat organlari va tashkilotlari o'zlarining axborot tizimlari va resurslarida yagona identifikatorlardan foydalanishni ta'minlash
- jamiyat hayotining barcha jabhalariga raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish, shu jumladan raqamli hukumat axborot tizimlarini keng joriy qilishni yanada jadallashtirish



2.5. Ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari



ochiq davlat ma'lumotlaridan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish



davlat organlarining idoraviy tizimlarini ishlab chiqish xarajatlarini qisqartirish



aholi fikri asosida amalga oshirilayotgan loyihalar ulushini oshirish



elektron ishtirok etish vositalarini takomillashtirish;




davlat organlari va tashkilotlari hisobdorligini ta'minlash

RAQAMLI HUKUMAT DOIRASIDA OCHIQLIK VA SHAFFOFLIKNI TA'MINLASH MAQSADIDA QUYIDAGI TADBIRLAR AMALGA OSHIRILADI

- iste'molchilar talabidan kelib chiqqan holda ochiq davlat ma'lumotlarini ishlab chiqish, shakllantirish va ulardan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek, "ochiq ma'lumotlar"ga asoslangan davlat mobil ilovalari va dasturlari ulushini oshirish
- hujjatlarni raqamlashtirish va davlat xizmatlarini ko'rsatish va ochiq ma'lumotlarni shakllantirish doirasida zarur bo'lgan davlat organlari va tashkilotlarining ma'lumotlar bazalarida ma'lumotlarni shakllantirish
- ochiq ma'lumotlarga qulay kirishni ta'minlash uchun davlat idoralariga API-larni ishlab chiqish va taqdim etish
- elektron hukumat axborot tizimlarini ishlab chiqishda yagona texnologik yondashuvni ta'minlash, shu jumladan ochiq kodli dasturiy ta'minotdan foydalangan holda davlat organlarining idoraviy tizimlarini ishlab chiqish xarajatlarini qisqartirish

- aholining takliflari va mulohazalarini, shuningdek, aholi fikri asosida amalga oshirilayotgan loyihalar ulushini oshirishni hisobga olgan holda qonun hujjatlari loyihalarini onlayn tarzda muhokama qilishda fuqarolar va tadbirkorlar ishtirok etishi mexanizmini yanada takomillashtirish
- aholini davlat boshqaruvida, xususan, normativ-huquqiy hujjatlarni muhokama qilish, qaror qabul qilish, davlat byudjeti mablag'laridan samarali foydalanishda ishtirokini ta'minlovchi axborot tizimlarini, tartibotlarni takomillashtirish
- davlat organlari va tashkilotlari hisobdorligini ta'minlash maqsadida ularning rasmiy veb-saytlarini takomillashtirish, veb-saytlar ma'lumotlari dolzarbligini va to'liqligini ta'minlash



2.6. Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim berish va malaka oshirishning ustuvor yo'nalishlari



Raqamli ko'nikmalarga ega bo'lgan aholi ulushini oshirish



Davlat xizmatchilarining AKT sohasidagi ko'nikmalari va malakalarini oshirish



Masofaviy ta'lim vositalarini rivojlantirish



AKT sohasi bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchilar sonini oshirish

AHOLINING BARCHA QATLAMLARIDA RAQAMLI KO'NIKMALARNI OSHIRISH MAQSADIDA QUYIDAGI TADBIRLAR AMALGA OSHIRILADI

- yoshlar orasida axborot texnologiyalarini ommalashtirish, shuningdek, aholining barcha qatlamlari orasida raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish
- keksa va o'rta yoshdagi aholiga Internet jahon axborot tarmog'ida ishlash, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidan va boshqa texnologiyalardan foydalanish bo'yicha ko'nikmalarni o'z ichiga olgan kompyuter savodxonligi kurslarini tashkil etish
- ayollarga va nogironligi bo'lgan shaxslarga raqamli ko'nikmalarni o'rgatish uchun davlat tomonidan yordam ko'rsatish
- axborot texnologiyalari sohasida masofaviy, onlayn va virtual o'qitish texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish, onlayn kurslar uchun platformalar ishlab chiqish
- raqamli ko'nikmalarga ega bo'lgan aholi ulushini oshirish maqsadida yuqori malakali mutaxassislar ishtirokida bepul onlayn kurslarni tashkil etish

Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim berish Va malaka (raqamli ko'nikmalarni) oshirish



Aholining barcha qatlamlarida

- yoshlar orasida axborot texnologiyalarini ommalashtirish
- aholi orasida raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish
- kompyuter savodxonligi kurslarini tashkil etish
- masofaviy, onlayn va virtual o'qitish texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish
- yuqori malakali mutaxassislar ishtirokida bepul onlayn kurslarni tashkil etish



Davlat boshqaruvida

- davlat xizmatchilarining AKT sohasidagi ko'nikmalari va malakalarini oshirish mexanizmini rivojlantirish
- AKT dan foydalanish ko'nikmalarini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish
- raqamli iqtisodiyotning asosiy vakolatlariga qo'yiladigan talablarning shakllantirish va joriy etish
- masofadan o'qitish bo'yicha yagona elektron platformani yaratish



Ta'lim sohasida

- yagona masofaviy ta'lim platformasini yaratish va amalga oshirish
- AKT sohasi bo'yicha bitiruvchilar sonini oshirish
- umumta'lim maktablarda informatika fanini o'qitish metodlarini takomillashtirish
- yangi texnologiyalar bo'yicha respublika tanlovlari va tadbirlarini o'tkazish
- IT-korxonalar uchun institutsional sharoitlarni yaxshilash va ma'muriy to'siqlarni kamaytirish
- aholini raqamli xizmatlardan foydalanishga chorlash

DAVLAT BOSHQARUVIDA RAQAMLI KO'NIKMALARNI OSHIRISH MAQSADIDA QUYIDAGI TADBIRLAR AMALGA OSHIRILADI

- davlat xizmatchilarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi ko'nikmalari va malakalarini oshirish mexanizmini rivojlantirish va doimiy takomillashtirib borish
- raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish
- ta'lim tizimiga har bir ta'lim darajasi uchun raqamli iqtisodiyotning asosiy vakolatlariga qo'yiladigan talablarning shakllanishi va joriy etilishi, (vakolatlar modelini hisobga olgan holda) ularning uzluksizligini ta'minlash
- davlat organlari xodimlarini malakasini oshirish uchun zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan va xodimlarning malakasini baholashning yangi mexanizmlaridan foydalangan holda masofadan o'qitish bo'yicha yagona elektron platformani yaratish

- kelajakda ta'limning barcha yo'nalishlarida raqamli ko'nikmalarni shakllantirish maqsadida ushbu maqsadga yo'naltirilgan masofaviy ta'lim platformasini yaratish va amalga oshirish
- yagona masofaviy ta'lim platformasini kelajakda ta'limning barcha yo'nalishlarida tatbiq etish maqsadida yaratish va amalga oshirish
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi bo'yicha kadrlar tayyorlovchi oliy va professional ta'lim muassasalari bitiruvchilari sonini oshirish
- axborot texnologiyalar sohasidagi tashkilotlarining o'quv jarayonlarga qatnashishini rag'batlantirish orqali umumta'lim maktablarda informatika fanini o'qitish metodlarini takomillashtirish
- g'oyalar va yangi texnologiyalar yaratishni targ'ib qiluvchi respublika tanlovlari va tadbirlarini (xakatonlar, konkurslar, olimpiadalar va boshqalar) o'tkazish
- maktabgacha, o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim tizimi uchun mo'ljallangan elektron ta'lim resurslarini yanada takomillashtirish, ularni yaratishni rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish, shuningdek, ichki va jahon elektron ta'lim resurslaridan foydalanishni yo'lga qo'yish
- inson kapitalini rivojlantirish, shu jumladan, ixtisoslashgan ta'limni rivojlantirish hamda IT-sohasidagi kasblarni ommalashtirish, IT-korxonalar uchun institutsional sharoitlarni yaxshilash va ma'muriy to'siqlarni kamaytirish
- maktab va maktabgacha ta'lim tizimiga raqamli transformatsiya va yangi texnologiyalar bo'yicha innovatsion o'quv dasturlarini joriy etish
- elektron xizmatlarga aholi ishonchini shakllantirish va aholining tez rivojlanayotgan raqamli imkoniyatlaridan foydalanish yuzasidan zarur ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha samarali choralarni ko'rish
- odamlarni hukumat va biznes tomonidan taqdim etiladigan raqamli xizmatlardan foydalanishga chorlash

2.7. Raqamli hukumat sohasida axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlikni ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari



aholining davlat organlari bilan xavfsiz va oson o'zaro hamkorlik qilishini ta'minlash



raqamli davlat xizmatlariga ishonchni mustahkamlash



kiberhujumlardagi yo'qotishlarni minimallashtirish

RAQAMLI HUKUMAT SOHASIDA AXBOROT XAVFSIZLIGI VA KIBERXAVFSIZLIKNI TA'MINLASHMAQSADIDA QUYIDAGI TADBIRLAR AMALGA OSHIRILADI

- foydalanish qoidalari, autentifikatsiya jarayonlari, kriptografik himoya, hodisalarga javob berish protokollarini o'z ichiga olgan "Raqamli hukumat" tizimida axborot xavfsizligi siyosatini ishlab chiqish va muntazam takomillashtirib borish
- shaxsiy ma'lumotlar, davlat organlari va tashkilotlari ma'lumotlarini saqlash bo'yicha zamonaviy kiberxavfsizlik standartlarini joriy qilish
- viruslar, xakerlik hujumlari, ichki tahdidlar va boshqalarni o'z ichiga olgan holda "Raqamli hukumat" tizimida xavflarni aniqlash va boshqarish tizimini joriy qilish va takomillashtirish
- davlat organlari va tashkilotlarining mas'ul xodimlarini axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik bo'yicha doimiy malakasini oshirib borish
- xavfsizlik devori (brandmauer), hujumlarni aniqlash tizimi, shifrlash tizimlarini qo'llash orqali serverlar va tarmoq qurilmalari xavfsizligini ta'minlash
- kiberhujumlardagi yo'qotishlarni minimallashtirish uchun ishonchli zaxira usullari va ma'lumotlarni tiklash rejalarini ishlab chiqish va takomillashtirib borish
- doimiy ravishda xavfsizlik dasturlarini yangilab borish va zaifliklar aniqlash tizimlari yordamida sinovdan o'tkazib turish hamda xavfsizlik tahdidlarini aniqlash va ularga tezkor javob berish uchun davlat axborot tizimlarini doimiy ravishda monitoring qilib borish
- idoraviy va idoralararo axborot tizimlarini, elektron hukumat xizmatlarini ko'rsatuvchi davlat organlarining axborot resurslarini, markaziy ma'lumotlar bazalarini xavfsiz saqlash va ularning integratsiyasini ta'minlaydigan Raqamli hukumatning ma'lumotlarini qayta ishlash markazini kengaytirish

2.8. Raqamli hukumat sohasida monitoring va samaradorlikni baholashning ustuvor yo'nalishlari



Raqamli hukumat sohasida samaradorlikni oshirish



Shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlash



Raqamli hukumat sohasini barqaror rivojlantirish



Fuqarolar va biznes ishonchini oshirish

RAQAMLI HUKUMAT SOHASIDA MONITORING VA SAMARADORLIKNI BAHOLASHNI TA'MINLASH MAQSADIDA QUYIDAGI TADBIRLAR AMALGA OSHIRILADI

- davlat organlari va tashkilotlari tomonidan raqamli hukumat sohasida amalga oshirilayotgan loyihalar holatini monitoring qilish tizimini takomillashtirish
- davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini raqamlashtirish holatini reytingli baholash tizimini takomillashtirish
- raqamlashtirish holatini reytingida yuqori natijalarga erishgan davlat organlari va tashkilotlari rahbarlari va mas'ul xodimlarini rag'batlantirish hamda past natijaga erishganlarga intizomiy chora ko'rish mexanizmlarini joriy qilish
- davlat axborot tizimlari va portallari ish faoliyatini doimiy ravishda monitoringini olib borish tizimini joriy qilish
- davlat organlari va tashkilotlari faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy etish va ulardan foydalanish samaradorligini baholash tizimini joriy etish

2.9. Raqamli hukumat sohasida xalqaro hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari



BMTning Elektron hukumatni rivojlantirish reytingida O'zbekistonni top-40 mamlakatlar qatoriga kiritish

RAQAMLI HUKUMAT SOHASIDA XALQARO HAMKORLIKNI YO'LGA QO'YISH MAQSADIDA QUYIDAGI TADBIRLAR AMALGA OSHIRILADI

- BMTning Elektron hukumatni rivojlantirish reytingida yuqori o'rinlarni egallagan, raqamli hukumat loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirgan mamlakatlar bilan tajriba almashish
- BMTning Elektron hukumatni rivojlantirish reytingida mamlakat o'rnini yaxshilash borasida xalqaro tashkilotlar bilan aloqa o'rnatish, shu jumladan, xalqaro tashkilotlarga statistik va so'rovnomalar bo'yicha dolzarb ma'lumotlarni yetkazish mexanizmlarini yo'lga qo'yish
- xalqaro yirik tashkilotlar bilan hamkorlikda raqamlashtirish yo'nalishidagi milliy kadrlar malakasini oshirish mexanizmini tatbiq etish
- xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda raqamli hukumat sohasida anjumanlar, seminarlar va boshqa tadbirlarni o'tkazish
- BMTning Elektron hukumatni rivojlantirish reytingi natijasi e'lon qilinganda mas'ul xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilish bo'yicha tezkor choralar ko'rish tadbirlarini belgilash

03

bob

Strategiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar

Kutilayotgan natijalar

YUQORI SIFATLI VA BARQAROR RAQAMLI INFRATUZILMA ORQALI MAMLAKATNING RAQAMLI TARAQQIYOTINI TA'MINLASH

RAQAMLI INFRATUZILMA VA ALOQA

- yuqori tezlikdagi Internet jahon axborot va mobil aloqa tarmoqlaridan sifatli, xavfsiz, arzon va oqilona foydalanish
- barcha ijtimoiy obyektlarni Internet jahon axborot tarmog'i bilan ta'minlash
- respublika bo'ylab optik tolali aloqa tarmog'ining uzunligini kengaytirish



- aholi punktlarini yuqori tezlikdagi aloqa texnologiyalari bilan qamrab olish darajasini oshirish
- shaharlar va qishloqlar o'rtasidagi raqamli tafovutni kamaytirish
- davlat, biznes va aholining ehtiyojlariga qarab, hisoblash quvvatini samarali taqsimlash va undan foydalanish
- kommunal sohada elektron hisoblagichlar ulushini oshirish

DAVLAT BOSHQARUVINI RAQAMLASHTIRISH VA FUQAROLAR UCHUN QULAY ELEKTRON XIZMATLAR TIZIMINI YARATISH

RAQAMLI DAVLAT XIZMATLARI VA BOSHQARUV

- raqamli davlat xizmatlari ulushini oshirish
- raqamli davlat xizmatlariga ishonchni mustahkamlash, aholining davlat organlari bilan xavfsiz va oson o'zaro hamkorlik qilishini ta'minlash
- an'anaviy qog'oz yoki elektron hujjatga nisbatan elektron yozuvning ustunligi



Kutilayotgan natijalar

RAQAMLI SOHADA BILIMLI VA RAQOBATBARDOSH INSON KAPITALINI SHAKLLANTIRISH

INSON KAPITALI VA RAQAMLI KO'NIKMALAR

- aholining raqamli iqtisodiyot va elektron hukumat vositalaridan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish
- aholining barcha qatlamlari uchun axborot texnologiyalari sohasida ta'lim olish bo'yicha keng imkoniyatlarining mavjudligi
- axborot texnologiyalari sohasidagi professional kadrlar zaxirasining, shu jumladan boshqaruv kadrlari zaxirasining mavjudligi
- IT-yo'nalishi bo'yicha oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari sonini oshirish



O'ZBEKISTONNING XALQARO NUFUZINI OSHIRISH VA GLOBAL RAQAMLI MAYDONDA YETAKCHI O'RIN EGALLASH

XALQARO REYTING VA NUFUZ

- BMTning Elektron hukumatni rivojlantirish reytingida O'zbekistonni top-40 mamlakatlar qatoriga kiritish



Aloqa ma'lumotilari

Qo'shimcha ma'lumot olish uchun biz bilan bog'laning



100164, Toshkent shahri,
Ibrohim Muminov ko'chasi, 4



info@egov.uz , egov@exat.uz



www.egov.uz



(+998) 55-501-36-06